

## “O’ZBEKISTON – 2030” STRATEGIYASI

*Abdullayev Bekzod Xusniddin o‘g‘li*  
*O‘zbekiston tarixi kafedrasи o‘qituvchisi*  
*O‘rmonov Asrorbek Dilshod o‘g‘li*

*Andijon davlat universiteti*  
*Tarix fakulteti 3-kurs talabasi*

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada so‘nggi yillarda yurtimizda amalga oshirilayotgan siyosiy, ijtimoiy, iqtisodiy va madaniy sohalar faoliyati yuzasidan chora-tadbirlar, bu boradagi normativ-huquqiy hujjatlar, yurtimiz rivoji yo‘lidagi keng islohotlarning amaldagi rivoji haqida so‘z yuritiladi.

**Kalit so’zlar:** Normativ hujjat, strategiya, barqaror iqtisodiyot, ijtimoiy hayot, islohot, taraqqiyot, maqsadli ko‘rsatkichlar.

**Abstract:** This article talks about measures regarding the activities of the political, social, economic and cultural spheres implemented in our country in recent years, normative legal documents in this regard, and the actual development of broad reforms in the way of the development of our country.

**Key words:** Normative document, strategy, sustainable economy, social life, reform, development, target indicators.

**Аннотация:** В данной статье говорится о мерах, касающихся деятельности политической, социальной, экономической и культурной сферы, реализованных в нашей стране в последние годы, нормативно-правовых документах в этой связи, а также о фактическом развитии широких реформ на пути развития нашей страны. страна.

**Ключевые слова:** Нормативный документ, стратегия, устойчивая экономика, общественная жизнь, реформа, развитие, целевые индикаторы.

**Kirish:** So‘nggi yillarda mamlakatimizda ijtimoiy, iqtisodiy va siyosiy sohada islohotlar ko`lami tobora kengayib bormoqda. Bu borada qator normativ-huquqiy hujjatlar qabul qilinmoqda. Bundagi asosiy g‘oya yurtimiz rivojini har tomonlama yuksaltirishdan iborat.

**Tadqiqot metodlari:** Ushbu maqola tarixiy tadqiqotlarning ilmiy holislik, mantiqiy izchillik, qiyosiy tahlil, xronologik izchillik kabi usullari asosida yozildi.

**Natijalar:** 2023-yil 11-sentabrda O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekiston — 2030” strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-158-son Farmoni qabul qilindi (keying o‘rinlarda – Farmon) [1]. Mazkur Farmon bilan Yangi O‘zbekiston taraqqiyot strategiyasini amalga oshirish jarayonida orttirilgan tajriba va jamoatchilik muhokamasi natijalari asosida ishlab chiqilgan “O‘zbekiston — 2030” strategiyasi

tasdiqlandi. Mazkur strategiyadan ko‘zlangan maqsad mamlakatimizni ijtimoiy, iqtisodiy va siyosiy jihatdan yangi pog‘onaga olib chiqish hisoblanadi desak mubolag‘a bo‘lmaydi. Strategiyada mamlakatimizni yanada rivojlantirishga qaratilgan bir qator asosiy g‘oyalar o‘z aksini topdi. Ushbu g‘oyalar quyidagilardan iborat: barqaror iqtisodiy o‘sish orqali daromadi o‘rtachadan yuqori bo‘lgan davlatlar qatoridan o‘rin olish; aholi talablariga va xalqaro standartlarga to‘liq javob beradigan ta’lim, tibbiyat va ijtimoiy himoya tizimini tashkil qilish; aholi uchun qulay ekologik sharoitlarni yaratish; xalq xizmatidagiadolatli va zamonaviy davlatni barpo etish; mamlakatning suvereniteti va xavfsizligini kafolatli ta’minalash.

“O‘zbekiston — 2030” strategiyasi doirasidagi islohotlar bo‘yicha tadbirlarning aholi tomonidan bildirilgan fikr va tashabbuslar asosida sifatli amalga oshirilishi, belgilangan ko‘rsatkichlarga erishilishini nazorat qilib, natijasi yuzasidan har yarim yilda O‘zbekiston Respublikasi Prezidentiga axborot kiritilishini ta’minalash kabi bir qator vazifalar belgilab qo‘yildi.

Endilikda Farmonga muvofiq, “O‘zbekiston — 2030” strategiyasining hududlar kesimida ijro etilishi yuzasidan qonun chiqaruvchi hokimiyat hududiy tuzilmalari – Qoraqalpog‘iston Respublikasi Jo‘qorg‘i Kengesi, viloyatlar va Toshkent shahar xalq deputatlari Kengashlari vazirlilik va idoralar hududiy bo‘linmalari rahbarlarining axborotini har chorakda eshitishi, ularni tanqidiy muhokama qilib borishi mumkin bo‘ladi. Aytish lozimki, ushbu jarayon “O‘zbekiston — 2030” strategiyasining har tomonlama to‘liq va sifatli ijro etilishiga, bu borada xalq vakillarining roli kuchayishiga xizmat qiladi. O‘zbekiston — 2030” strategiyasi va uni bajarish bo‘yicha amaliy chora-tadbirlar ijrosi, tegishli maqsadli ko‘rsatkichlarga erishilishi va ular doirasida normativ-huquqiy hujjatlar o‘z vaqtida ishlab chiqilishi ustidan nazoratni amalga oshirish tartibi ham belgilandi. Unga ko‘ra, endilikda Adliya vazirligi, Hisob palatasi, “Taraqqiyot strategiyasi” markazi va “Yuksalish” umummiliy harakati bilan birgalikda “O‘zbekiston — 2030” strategiyasi va uni tegishli yillarda amalga oshirish bo‘yicha chora-tadbirlar bajarilishini tizimli monitoring qilib, uning natijalarini har oyda Respublika komissiyasiga kiritib boradi. Qoraqalpog‘iston Respublikasi Jo‘qorg‘i Kengesi, viloyatlar, tumanlar va shaharlar xalq deputatlari Kengashlari o‘z hududlarida “O‘zbekiston — 2030” strategiyasi ijrosining tegishli yillarda hududlar kesimida amalga oshirilishi bo‘yicha har chorakda nazorat tadbirlarini o‘tkazadi. Vazirlar Mahkamasi esa har oyda “O‘zbekiston — 2030” strategiyasi amalga oshirilishini Bosh vazir o‘rinbosarlari huzurida tanqidiy ko‘rib chiqishni ta’minalaydi, har chorakda hukumat majlislarida muhokama qilib boradi hamda o‘z vaqtida va to‘liq bajarilmagan tadbirlar yuzasidan Hukumat a’zolariga, shu jumladan vazirlarga nisbatan tegishli choralar ko‘radi hamda har yarim yilda Oliy Majlis Qonunchilik palatasiga “O‘zbekiston — 2030” strategiyasi amalga oshirilishi yuzasidan hisobot taqdim qiladi.

Mazkur Farmon ijrosini samarali tashkil qilishga mas’ul va shaxsiy javobgar etib vazirlilik va idoralar rahbarlari, Qoraqalpog‘iston Respublikasi Vazirlar Kengashi Raisi, viloyatlar va Toshkent shahar hokimlari belgilandi.

Bir so‘z bilan aytganda, O‘zbekiston — 2030” strategiyasi xalq strategiyasi o‘laroq qabul qilindi. Bu orqali esa jahonning rivojlangan davlatlari qatoridan munosib joy egallash, o‘z o‘rnida har tomonlama yuksak rivojlangan mamlakatga aylanish asosiy tamoyil hisoblanadi. Jahon siyosiy maydonida hozirgi kunda mamlakatimiz bu kabi uzoq muddatni qamrab oluvchi rivojlanish rejasi, strategiyasiga muhtoj edi va yuqoridagi Farmonning qabul qilinishi ayni muddao bo‘ldi. Umid va ishonch bilan ayta olamizki endilikda ushbu maqsadni amalga oshirish anchayin maqsadli, oson va reja asosida kechadi.

### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR**

1. LEX UZ. URL: <https://lex.uz/docs/-6600413>
2. “Yangi O‘zbekiston” gazetasi 11-soni. Yuz.uz sayti 5-6 sahifa
3. NORMA UZ. URL:[https://www.norma.uz/oz/qonunchilikda\\_yangi/uzbekiston\\_-2030\\_strategiyasi\\_asosiy\\_goyalari](https://www.norma.uz/oz/qonunchilikda_yangi/uzbekiston_-2030_strategiyasi_asosiy_goyalari)